



YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA JADIDCHILIK G'OYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Yusupova Laylo

Guliston davlat universiteti

Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Turkiston jadidchilik harakatining namoyandalari ma'rifatparvar kishilar edi. Ma'rifatparvarlar keng ma'noda bilim tarqatuvchi kishilar hisoblanadi. Siyosiy ma'noda ma'rifatparvarlik xalqni ozodlikka olib chiqish va milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surish bilan ifodalananadi. Ushbu maqolada aynan Turkiston ma'rifatparvarlari jaholat, bilimsizlik, madaniyatsizlik, mutaassiblik, diniy aqidaparastlikni inson azob-uqubatlarining asl sabablari deya talqin etgani va xalqni ushbu illatlardan xalos qilishga bo'lgan urinishlari, qarashlari haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Jadid, mакtab, ta'lим, tuzum, yangi usul mакtab, jamiyat, renessans, qadriyat, rivojlanish, bilimsizlik, madaniyat.

Yangi O'zbekistonda mutlaqo yangi milliy huquqiy tizim shakllanmoqda. Ya'ni, "Inson, uning huquqlari, erkinliklari, ayniqsa, qadri-eng muhim qadriyat" degan tamoyil e'tirof etilmoqda. Eng asosiysi: Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yillar davomida amal qilib kelgan "davlat-jamiyat-inson" tamoyili "inson-jamiyat-davlat" tamoyiliga o'zgartirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovga bergen intervyusida jurnalistning:- "Ma'lumki, keyingi besh yil davomida mamlakatimizda keng miqyosdagi demokratik o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekiston" degan tushuncha real voqelikka aylanmoqda. Siz davlat boshlig'i, ana shu ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tashabbuskori va ularning markazida turgan islohotchi rahbar sifatida bu yangilanishlarning mazmun-mohiyatini birinchi navbatda nimalarda ko'rasiz?" – degan savoliga yurtboshimiz quyidagicha javob bergani:

".....Darvoqe, "yangi" degan so'zning biz uchun alohida ahamiyati bor. Masalan, eng ko'hna bayramlarimizdan biri Navro'z-yangi kun deb atalishini esga olaylik. Ushbu qadimiy bayram bilan bog'liq qadriyat va an'analar hayotimizga shu qadar singib ketganki, xalqimiz asrlar davomida, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy aytganlaridek, "Har tuning qadr o'lubon, har kuning bo'lsin Navro'z!"- degan ezgu tilaklar, pok niyatlar bilan yashab keladi. Yoki o'tgan asrning boshlarida yurtparvar, millatparvar bobolarimiz "jadidchilik", ya'ni yangilanish va erkinlik,adolat va tenglik, ilm-ma'rifat va milliy o'zlikni anglash g'oyalarini bayroq qilib, kurash maydoniga mardona chiqqanlarini barchamiz yaxshi bilamiz. Bu ulug' zotlarning maqsadi-jaholat va qoloqlik girdobida qolib kelayotgan Turkiston xalqini dunyoviy ilm -fan, ilg'or kasb-hunarlar bilan



qurollantirib, umumbashariy rivojlanish yo‘liga olib chiqishdan iborat edi.

Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usuldagи maktablar, teatr, kutubxona va muzeylar, gazeta va jurnallar, Turkiston farzandlarini chet ellarga o‘qishga yuborish maqsadida tuzilgan xayriya jamiyatlari xalqimizni necha asrlik g‘aflat uyqusidan uyg‘otdi, milliy ozodlik harakati uchun beqiyos kuch berdi. Afsuski, yurtimizda “bolsheviklar” diktaturasi o‘rnatilgani, chor mustamlakachilik siyosati yangicha shaklda davom ettirilgani ma’ rifatparvar bobolarimizga o‘z maqsad-muddaolarini to‘liq amalga oshirish imkonini bermadi. Lekin ularning ezgu orzuniyatlari xalqimizning qon-qonida, tarixiy xotirasida saqlanib qoldi va hanuz yashamoqda, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Shu ma’noda, bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi zamirida ana shunday ulug‘ ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinci uyg‘onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-tilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo‘lamiz.

Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, har qaysi xalq hayotidagi ma’naviy uyg‘onish jarayonlari milliy o‘zlikni anglashga olib keladi hamda mamlakatning iqtisodiy, madaniy taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradi. Bunday ijtimoiy noyob hodisa “Renessans”-uyg‘onish, qayta tiklanish, yuksalish deb atalishi barchamizga ayon.....”-bizda Vatanga bo‘lgan muhabbat hissini yanada rivojlantirdi. Ushbu maqola davomida “Uchunchi renessans” davrini yaratish kabi oliy maqsad yo‘lida birlashib jasorat bilan “Haq olinur- berilmas” shiori ostida harakat qilgan ma’rifatparvar kishilar jamoasi jadidlar harakatiga nazar solamiz. [1]

Keyingi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni qariyb 6 barobar ko‘payib, 4988 tadan 29420 taga, oliy o‘quv yurtlari soni esa 77 tadan 213 tagacha oshirildi. Yurtimizda yangi turdagи Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashgan maktablar faoliyati yo‘lga qo‘yilib kelinmoqda [2]. Ertamiz egalari bo‘lgan yosh avlodni har tomonlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar qilib tarbiyalashda taraqqiyat parvar ajdodlarimizning aql-zakovati, iroda va matonati barchamiz uchun ibrat maktabi vazifasida xizmat qiladi. Bu davrga yetib kelgunimizga qadar yuritimizning boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ko‘plab bobokalonlarimiz har tamonlama mukammal davlat va uning ma’nан va huquqan boy a’ zolarini shakklantirish uchun harakat qilganlar. Ma’lumki, bugungi O‘zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg‘onish davri kuzatilgan, bular quyidagicha:

-Birinchi, ma’rifiy-IX-XII asrlar

-Ikkinci, Temuriylar-XIV-XV asrlar Renessansga beshik bo‘lgan. Bu- jahon



ilm-fanida o‘z isbotini topgan va tan olingen tarixiy haqiqatdir.

-Uchinchi, renessans esa Jadidchilik harakati deb aytishimiz kerak edi, ammo, ziddiyatlizamona bunga imkon bermadi. Biroq, jadid bobolarimizning o‘z harakatlari yo‘lida qiligan tinimsiz harakatlari taxsinga szavor buni maqola davomida ko‘rib chiqmiz. Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha: jadid-yangi)-XIX

asr oxiri XX asr boshida Turkiston, hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat hisoblanadi.

Ularning maqsad bitta-millatning ko‘zini ochish, dunyo ahli qanday taraqqiy qilib yashayotgan bo‘lsa, Turkiston ahli ham shunday taraqqiy qilib yashashi uchun intilish. Har turli to‘y-marosimlar va ziyofatlarga qilinadigan isroflarning oldini olish kerak degan bir fikrda bo‘lishgan.

Bizga ta’rixdan ma’lumki, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bir qator sharq va musulmon mamlakatlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati Turkiston o‘lkasida teran tarixiy ildizlariga egadir. Yurtimiz ulkan ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy ahamiyatga ega ushbu jarayonlardan chetda qolmagani, aksincha, bu harakatning markazlaridan biriga aylanganini ta’kidlash lozim. O‘z zamonasining ilg‘or namoyandalari bo‘lgan jadidlar g‘oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma’rifat tarqatish, ta’lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g‘oyasi bilan murakkab maydonga chiqdilar. Shu maqsadda o‘z mablag‘lari hisobidan maktab va teatrular, nashriyot va kutubxonalar, gazeta va jurnallar tashkil qilish kabi savobli hamda foydali ishlari qilishdi, qobiliyatli yoshlarni chet ellarga o‘qib bilinlarini oshirib yangicha qarashlarga ega bo‘lishlari uchun yubordilar. Ularning bu oljanob tashabbus va harakatlari jamiyat hayotida kuchli aks sado berib, qudratli t o‘lqinga aylandi. Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, tarixda ikki buyuk Renessansga zamin vazifasini o‘tagan mintaqamizda uchinchi renessansni amalga oshirish maqsadida bobolarimiz Maxmudxo‘ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Abdulla Avloniy, Abdulxamid Cho‘lpon Abdulla Qodiriy va boshqa ziyorilar jonbozlik ko‘rsatishdi. Ularning olib brogan ishlari “jadidlarning xalq ma’rifati uchun kurash” dasturi asosida amalga oshirilgan.

Bu dastur uch yo‘nalishda olib borilgan:

1. Yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish.
2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish.
3. Turli ma’rifiy jamiyatlar tuzish xamda ziyyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish.

Jadidchilikning poydevori, tamal toshi-usuli jadid maktabi bo‘lganini bilamiz. Zero, “yangi” ma’noni beruvchi “jadid” istilohi kirib kelishining o‘zi aynan yangi



usuldagi maktablar bilan bog'liq bo'lgan. Dastlab, 1895-1910-yillar orasida Turkistonning Toshkent, Samarqand, Qo'qon kabi barcha yirik shaharlarida, qishloqlarida Buxoro amirligi va Xiva xonliklarida o'nlab "usuli saviya" maktablari ochildi. So'ngra, 1903-yillardan jadidchilik matbuoti uchun maxsus darsliklar tuzila boshlandi, lekin bu ishlar g'oyat qiyin tusda kechdi. Biroq mustabid hukumat va mahalliy mutaassiblarning qarshiligiga qaramay, jadidlarning sa'y-harakatlari bilan "usuli jadid" maktablarining tarmog'i kengayib boraverdi. Chinakam ma'rifat o'chog'iga aylangan, madaniy tanazzuldan saqlanish va jamiyat ma'naviyatini mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etgan yangi usul maktablarining soni 1917-yil boshlariga kelib 92 tani tashkil etdi. [3]

O'sha davrda usuli jadid maktablarida yangicha o'qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta'lif berish dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko'ra maktablarda o'qitish tizimi ikki bosqichdan iborat bo'lgani tarixdan bizga ma'lum.

Birinchi bosqich *ibtidoiy* qism deb nomlangan, uning taxsil muddati 4 yil bo'lgan. Birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil o'qigandan ko'ra yaxshiroq savod chiqargan deya ta'kidlangan.

Ikkinchi bosqichni muvaffaqiyatli tugatgan shogird arabcha, forscha, turkiy tilda bemalol so'zlashib, ruschada erkin gaplasha olar edilar. Ushbu yangi tuzum maktablarida ta'lif olish orqali bolalar ham diniy, ham dunyoviy bilimlar olishgan. Jadid g'oyasi va falsafasi, jadidchilik harakati va amaliyoti ana shunday jasoratliziyolilar uchun nafaqat asosiy tayanch manbalardan biri bo'libgina qolmay, balki bugungi tafakkur yangilanishlari jarayoni uchun muhim zaruriy qo'llanma, har birimiz uchun esa ibrat namunasi hamda

ma'naviy mas'uliyat hissini mustahkamlash omili bo'lishi ham zarurligi davr talabiga aylangan.

Jadidlarning konseptual g'oyalari hozirgi o'zgarishlar amaliyotining ma'naviy darakchisi desak mubolag'a bo'lmaydi, shuningdek, bugungi kundagi strategiya va keng qamrovli islohotlarning genetik asosi bo'lib xizmat qiladi. Chunki ular siyosiy dasturlarida umuminsoniy xususiyatlarni tarannum qiluvchi, erk va ozodlik, adolat va mustaqillik g'oyalarini olg'a surdilar. Bu esa jadidlarning mustaqilligimiz uchun g'oyaviy asos bo'la oladigan tashabbuslaridan darakdir. Turkistondagi maorif tizimini isloh qilishni asosiy maqsad qilib olgan jadidlar yoshlarni milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan chiqish muammolari bilan shug'ullanadilar, zamonaviy bilimga ega kadrlar bo'lishi kerakligini anglaganlar. Jadidlar xalqning madaniyat darajasini xalqaro saviyaga ko'tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi



o‘quv maskanlarida o‘qitish zarur, deb hisoblaganlar. Yoshlarni chet elda o‘qib kelib, o‘z yurtiga foydasi tegadiganligi haqida Mahmudxo‘ja Behbudiy “Oyna” jurnalida quyidagicha yozgan: “*To‘y va ma’raka oqchasidan bolalarni, talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulga va Rossiya dorilfunun va dorulsaltanatlarig‘a yuborilib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg‘a sa’y qilinsun. Ma’lumki, Munavvarqori Abdurashidxonov ham bu yo‘lda jonbozlik ko‘rsatgan*”.[4]

Jadidlarning asosiy maqsadi dunyoviy ilmlarni egallagan yoshlarni tarbiyalash va ularning ma’nnaviy ongini oshirish, o‘z vazifasini o‘tay olmay qolgan eskicha ta’lim tizimiga yangicha innovatsion g‘oyalarni singdirishdan iborat edi. Bundan tashqari ular ijtimoiy hayot tarzini zamonaviy hayotga moslashtirish, milliy va zamonaviy armiyani joriy etish, diniy va dunyoviy, axloqiy normalarni inobatga olgan holda yangi qonunchilik konsepsiyasini ishlab chiqish va joriy etish, davlatning boshqaruv tizimini isloh etish, hududiy tarqoqlikni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, jamiyat

rivojlanishining barcha sohalari uchun milliy kadrlarni tayyorlash, davlatlar bilan diplomatik aloqalarni va tashqi siyosat konsepsiyasini o‘rnatish kabi bir qancha masalalarni ilgari surdi. “*Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir...*” Bugunga kelib, Yangi O‘zbekistonda ana shu tamoyilga qat’iy amal qilinmoqda. Ayniqsa, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqi ayrimlar o‘ylaganidek yuqoridagi tamoyilning mavsumiy emasligiga qat’iy ishora bo‘ldi. Ma’naviyat haqida gap borganida millat yetakchisining “*Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi*” asarida qayd etilgan ushbu mulohazalari yodga tushadi: “*Bugungi shiddatl, murakkab zamon shuni ko‘rsatmoqdaki, bu borada faqat ta’lim- tarbiya tizimining o‘zi mavjud ma’naviy tahdidlarga qarshi tura olmaydi. Bu masalaga butun jamiyatning kuch va imkoniyatlarini safarbar etmas ekanmiz, kutilgan natijaga erisha olmaymiz*” [5]. Xulosa qilib aytganda, Mustaqillik davrlarida jadidlar xotirasi abadiylashtirildi, Toshkentda muzey ochildi, Shahidlar xiyoboni bunyod qilindi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘qituvchilar kuni munosabati bilan o‘tgan tantanada sovetlar qatl etgan jadidchilar Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonovni “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlash qarorini ma’lum qildi.

Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma’naviy kuch-quvvat olamiz. Yurtimizda mustabid



tuzum davrida siyosiy qatag‘onga uchragan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. 31-avgust-Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni sifatida keng nishonlanmoqda. “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va uning hududiy bo‘limlari faoliyat olib bormoqda. Jadidchilik harakati tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar, badiiy asarlar, kinofilmlar ko‘plab yaratilmoqda. Ulug‘

ma’rifatparvarlarimiz nomlari bilan ataladigan yodgorlik majmualari, ta’lim muassasalari, muzeylar, bog‘ va xiyobonlar barpo etilmoqda. O’tgan uch yil mobaynida O‘zbekiston Oliy sudi tomonidan qatag‘on qurboni bo‘lgan to‘rt yuzdan ziyod vatandoshlarimizning nomlari oqlandi. Ularning aksariyat qismini jadidchilik harakati vakillari tashkil etishi ayniqsa e’tiborlidir. Biz ma’rifatparvar bobolarimizning muqaddas orzularini ro‘yobga chiqarish uchun mamlakatimizda yangi Renessans poydevorini yaratishni strategik vazifa qilib belgilaganmiz. Shu maqsadda ilm-fan, ta’lim-tarbiya, madaniyat sohalarida tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Bu borada avvalo ta’lim tizimini zamon talablari asosida tashkil etish, o‘qituvchi va murabbiylarning jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ta’sirini kuchaytirishga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz.

Mustabid tuzum ma’rifatparvar bobolarimizning ezgu g‘oya va amaliy harakatlarini to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqarishga imkon bermadi, ammo biz ular harakati, ta’limot va dasturlaridan andoza olgan holda “*uchunchi rennesans*” davrini yarata olamiz”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev “Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyadagi nutqi.” Daryo.uz sayti 06.03.2023.
2. Ahmedov, Sirojiddin; Rajabov, Qahramon (2000-2005). “Jadidchilik”. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
3. Abdurashidxonov. Xotiralarimdan(Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq - 2001. B 90 – 100
4. Abdurashidxonov. Xotiralarimdan(Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq - 2001. B 108 – 109
5. Jadidchilik tarixiga bugungi kun nazari bilan qaralishi kerak. Yangiliklar.uz sayti - 26.01.2024.
6. Ikrambayevna, S. D. (2024). Classification of Functions of Communicative Strategy and Tactics in Political Communication. Miasto Przyszlosci, 50, 548-553.
7. Sattarova, D. (2024). Siyosiy Muloqotning Pragmatik Aspektlari. Tamaddun Nuri Jurnalı, 5(56), 380-383.
8. Axmedova, D., & Zarmaskhonov, S. (2024, February). Exploring Global Perspectives In Language Teaching And Learning. In Conference Proceedings:



Fostering Your Research Spirit (pp. 205-207).

9. Sattarova, D. (2024, January). Siyosiy Notiqliknıng Milliy Madanıy Va Lısonıy Tahlılı (O'zbekiston Respublikası Birinchi Prezidenti Ia Karımov Nutqları Asosıda). In Международная конференция академических наук (Vol. 3, No. 1, pp. 5-7).
10. Sattarova, D. (2023). Komunikativ Diskursning Tadqiqot Ob'yekti. Молодые ученые, 1(22), 41-43.
11. Ikramboyevna, A. D., & Ikramboyevna, S. D. (2023). The Ways of Forming Secondary Nomination in Uzbek Language and Its Impact on Linguistics.
12. Suleymanova, N. M. (2020). On The Nominative Nature Of The Sentence. Theoretical & Applied Science, (4), 307-309.
13. Сулейманова, Н. М. (2017). Номинативный аспект речевого процесса. In Humanities and Social Sciences in Europe: Achievements and Perspectives (pp. 76-82).
14. Suleymanova, N. M., & Idiyev, A. R. O. G. L. (2021). Gapning Nominativ Aspekti Va Uning Kommunikativ Jarayoni Haqida. Academic research in educational sciences, 2(12), 805-809.
15. Сулейманова, Н. М., & Абдуллаева, Л. Т. (2017). Имманентный характер синергетических свойств единиц языковой системы. In Инновации В Современном Языковом Образовании (pp. 61-65).
16. Shokhista, R. (2023). The Significance Of Emphasizing Communicative Competence As The Foundation For Teaching Listening And Speaking Skills Rustamova Shokhista Sharifovna. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 25-28.
17. Rustamova, S. S. (2023, January). The Importance Of Speaking Activities In Teaching English. In International Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 357-361).
18. Sharifovna, R. S. (2022). Teaching Spoken English To Upper Class Pupils. Confrencea, 6(6), 87-89.
19. Sharifovna, R. S. (2022). Class Size And The Learning-Teaching Process In Upper Classes. Journal of new century innovations, 14(1), 86-98.
20. Sharipovna, R. S. Peculiarities Of Teaching English In Secondary Schools In Uzbekistan. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, (2), 1-5.